



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ENERGETIKA VAZIRLIGI
MINISTRY OF ENERGY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi, 100047, Toshkent sh., Istiqbol ko'chasi, 21-uy
Tel.: +998 71 231-18-81, El. pochta: info@minenergy.uz, minenergy.uz



2025-yil 27-avgust

01-11-1490 -son

Hurmatli xonimlar va janoblar!

Sizni **2026-yil 12-14-may kunlari** o'tkazilishi rejalashtirilgan O'zbekiston xalqaro energetika haftaligi – **UEW 2026**da ishtirok etishga taklif qilish sharafiga muyassarman.

An'anaviy tarzda energetika va neft-gaz sohalarining yetakchi mutaxassislari va kompaniyalarini birlashtirgan mazkur tadbir ilg'or texnika va texnologiyalarni namoyish etish, sohani rivojlantirish strategiyasi va tendentsiyalari bilan tanishish uchun o'ziga xos platforma bo'lib xizmat qiladi. **"Barqaror energiya uchun mintaqaviy sheriklik"** asosiy mavzusi bo'lgan 2025-yilgi Energetika haftaligi muvaffaqiyatli o'tkazilganini mamnuniyat bilan qayd etamiz.

Sohani rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalari – birinchi navbatda qayta tiklanadigan energiya manbalari va "yashil" iqtisodiyotga o'tish - energiya bozorining barcha ishtirokchilari: biznes vakillari, davlat idoralari va xalqaro tashkilotlarning sa'y-harakatlarini birlashtirish va hamkorligini taqozo etadi.

"Yangi energiya: Innovatsiyalar. Barqarorlik, Mintaqaviy hamkorlik" shiori ostida rejalashtirilgan O'zbekiston xalqaro energetika haftaligi – UEW 2026 tadbirlarining mavzusi ko'plab belgilangan yo'nalishlarni qamrab oladi va ularni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Haftalik doirasida quyidagi asosiy tadbirlar rejalashtirilgan:

- "O'zbekiston neft va gazi – OGU 2026" 28-Xalqaro ko'rgazmasi va anjumani;
- "Energetika, energiya tejash, atom energetikasi, muqobil energiya manbalari" – Power Uzbekistan 2026" 19- Xalqaro ko'rgazmasi;
- "Yashil energiya tejovchi texnologiyalar – GETCA 2026" ixtisoslashtirilgan bo'limi;
- 6-Xalqaro energetika konferensiyasi;
- G2B va B2B uchrashuvlar;

Ishonchim komilki, **Iteca Exhibitions** xalqaro ko'rgazma kompaniyasi ko'magida tashkil etiladigan O'zbekiston xalqaro energetika haftaligi – UEW 2026 yana bir bor dolzarb masalalarni muhokama qilish, eng so'nggi texnologik yechimlar va innovatsiyalar bilan tanishish uchun samarali maydonga aylanadi.

Sizning ishtirokingiz, albatta, uning ahamiyatini ta'kidlaydi va tadbirning muvaffaqiyatli o'tishiga hissa qo'shadi.

Hurmat bilan,

Vazir

J.Mirzamahmudov

Ijr. M.Maxbubov
Tel. 71-231-16-61 (7012)

033536